

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIV TA'LIM: YUTUQLAR VA ISTIQBOLLAR

*Xayitov Sherzod Komilovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti tyutori.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada so`nggi yillarda yangi O`zbekistonda oliv ta'liddagi bo`lgan o`zgarishlar, ularning yutuqlar hamda hali qilinishi lozim bo`lgan ishlar ko`rsatiladi. So`nggi yillarda mamlakatimizda oliv ta'limni rivojlantirish bo`yicha bir qancha chora tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada aynan so`nggi yillarda bo`lib o`tgan shu o`zgarishlar tahlil qilinib, sohani rivojlantirish uchun kerakli tavsiyalar beriladi. Mamlakatda tub islohotlar amalga oshirilar ekan, uning oliv ta'lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o`ynaydi. Keng qamrovli tahlil orqali ushbu tadqiqot o`quv dasturlarini ishlab chiqish, tadqiqot va xalqarolashtirish sohasida erishilgan yutuqlarga oydinlik kiritadi.

Kalit so`zlar: oliv ta'lim, yangi O`zbekiston, ta'lim islohoti, qonun, xalqarolashtirish.

Yangi O`zbekiston uchun oliv ta'liddagi tub burilish shak shubhasiz Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi bo`ldi. Konsepsiya binoan, 2030 yilga borib O`zbekistonda bir qancha ishlar amalga oshirilishi belgilangan.

Jumladan, oliv ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat OTMlar faoliyatini tashkil etish asosida oliv ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, O`zMU va SamDU, shuningdek, mamlakatimizdagi bir qancha nufuzli mahalliy universitetlarni mamlakatimiz OTMlarning flagmaniga aylantirish hamda ularni xalqaro reytingda TOP-500 ga kiritish, 10 ta OTMni xalqaro reytingda TOP-1000 ga kiritish (butun mamlakat miqyosi bo`yicha mahalliy universitetlar), OTMlarda o`quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o`tkazish, OTMlarning akademik mustaqilligini ta'minlash va hokazo. Bundan tashqari, oliv ta'limning investisiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish ham bugungi kunda asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi oliv ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini

joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Konsepsiya O`zbekiston Respublikasida oliy ta`limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo`nalishlari, vazifalari, o`rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo`ladi deb bemalol so`z yuritib barilla ayta olamiz.

2020-2021- yilgi holatga ko`ra, respublikada 114 ta oliy ta`lim muassasasi mavjud bo`lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta`lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, 2017-2010-yilda yangi 6 ta oliy ta`lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta`lim muassasasi filiali tashkil etildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta`lim yo`nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. 2019-2020-o`quv yilida 59 ta oliy ta`lim muassasasida sirtqi ta`lim, 10 ta oliy ta`lim muassasasida kechki ta`lim shakli joriy etildi. 2019-2020-yillarda Respublika oliy ta`lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta`lim yo`nalishi bo`yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo`yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so`nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

2020-yilgi holatga ko`ra, talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo`jaligi, 4,4 foizi sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot, 4,5 foizi xizmat ko`rsatish bilim sohalariga oid ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari bo`yicha tahsil olmoqdalar. Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo`jaligi, 13,5 foizi sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot, 3,2 foizi xizmat ko`rsatish bilim sohalariga oid ta`lim yo`nalishlari bo`yicha tahsil olmoqdalar. Shak shubhasiz so`nggi uch yilda bu raqamlar o`sdi. Xuddi shulurni hisobga olgan holda, yaqindagina, jumladan 2023-yil 10-avgust sanasida talabalar uchun nomli stipendiyalar ro`yxati yangilandi.¹

Oldinga yo`l: tavsiyalar va kelajak istiqbollari

Mustahkam sifat kafolati mexanizmlari:

Standartlashtirilgan akkreditatsiya jarayonlarini o`z ichiga olgan sifatni ta`minlashning keng qamrovli asoslarini yaratish oliy ta`lim muassasalarida bir xillik va mukammallikni ta`minlaydi.

Fakultet malakasini oshirish va rivojlantirish:

Professor-o`qituvchilarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo`llab-quvvatlash va kasbiy o`sishga ustuvor ahamiyat berish o`qitish sifatini, tadqiqot natijalarini va umumiylarini ta`lim tajribasini oshiradi.

Texnologik integratsiya va infratuzilmani yaxshilash:

¹ <https://lex.uz/docs/189598>

Texnologik infratuzilmaga investitsiyalar va raqamli savodxonlikni oshirish talabalarni raqamli iqtisodiyotga tayyorlaydi va masofaviy ta'lif imkoniyatlarini osonlashtiradi.

Sanoat va akademiya hamkorligi:

Amaliyot, ilmiy hamkorlik va o`quv dasturlari bo`yicha maslahat kengashlari orqali sohalar bilan hamkorlikni mustahkamlash ta'lifni bozor ehtiyojlariga moslashtiradi va bitiruvchilarning ishga joylashishini oshiradi.

Ta'lif insonning asosiy huquqi va shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosidir. Bugungi kundadolzarb mavzulardan biri bo`lgan ta'lifdagi korruptsiyadir. Bu borada mustaqil O`zbekistonda ta'linda korruptsiyasiz soha dasturi asosida juda jiddiy qadamlar tashlandi. Hozirgi kunda, korruptsiyaga qarshi kurashilmagan va ta'lif tizimi korruptsiyadan tozalanmagan, halol va shaffof bo`lmagan mamlakat tanazzulga yuz tutishi aniqdir. Afsus bilan shuni aytish kerakki, yaqin tariximizda ta'lif sohasini korrupsiya chirmovug`day o`rab olgan edi. Maktabgacha ta'lif muassasasidan tortib, to oliy ta'limgacha korrupsiya girdobida qolgandi. Buning oqibatida xalqimizda ta'lif tizimiga nisbatan ishonch yo`qolgan va hamma narsani zamirida korrupsiya bor degan tushuncha shakllanib ulgirgan edi. Ta'limga nisbatan ishonch o`rnini aksincha nafrat egallagan edi. Bugungi kunda, butun mamlakatda, aynan ta'linda bu korrupsion halqani uzib tashlash, unga qarshi murosasizlik ongini shakllantirish va kurashish bo`yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan ta'lif tizimidagi korrupsion tuzilmalarga qarshi kurashish, bu borada qattiq turishi orqali korrupsion holatlardan tozalanmoqda, desak bo`ladi.² Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi ta'lif muassasalarida korrupsiya qarshi keskin kurashilmoqda. Yangi o`quv yilida o`qishga qabul, o`qishni ko`chirish masalalarida korrupsiyaviy harakatlarga butunlay barham berilmoqda. Imtihonlar astasekinlik bilan korrupsion jozibadorlikdan xalos qilinmoqda. Avvalo, abituriyentlar hujjatlarini onlayn qabul qilishdan boshlab, barcha jarayonlar Bilim va malakalarni baholash agentligi (sobiq DTM) tomonidan amalga oshirilmoqda. Xatto, tojik, qozoq va turkman tillaridagi ta'lif yo`nalishlarida ham DTM tomonidan test sinovlari o`tkazilmoqda.

Magistraturaga kirish imthonlarida ham so`nggi yillarda katta o`zgarishlar bo`ldi. Jumladan ushbu dargohga qabul jarayonlari ta'lifning bakalavriat bosqichini tugatgan talabalarning o`qish davomida to`plagan o`rtacha bali bo`yicha, imthon bo`lmasdan amalga oshirilmoqda. Yaxshi bilamizki, avvallari har bir talaba mutaxassislik fanlari hamda chet tilidan bu borada imthon topshirishar edi. Lekin

² Xudaybergenov, A., 2023, February. O`ZBEKISTONDA TA'LIMGA KIRITILGAN YANGILIKLAR, YUTUQLAR. BUGUNGI KUN O`QITUVCHILARI!. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 2, pp. 15-25).

avvalgi yildan bu narsa o`zgardi. Faqatgina talabaning chet tilini bilish darajasi bo`yicha olingan xalqaro yoki milliy sertifikati mavjud bo`lishi shart qilib belgilandi. Ilgari amalda bo`lgan, kafedra a`zolari tomonidan olinadigan mutaxassislik imtihonlarining bekor qilinganligi, bu sohada ham korrupsiyaviy holatlarga barham berilganligini ko`rsatadi.³

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, so`nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimidagi o`zgarishlarni inobatga olib quyidagi aniq xulosalarga kelishimiz mumkin:

Muammolar va islohotlar

O`zbekiston oliy ta'lim tizimi o`qitishning eskirgan usullari, cheklangan tadqiqot imkoniyatlari va mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelmasligi kabi turli muammolarga duch keldi. Bunga javoban hukumat oliy ta'lim sifati va dolzarbligini oshirish bo`yicha keng qamrovli islohotlarni boshlab yubordi.

O`quv dasturlarini modernizatsiya qilish: O`zbekistonda zamonaviy o`qitish metodologiyalari va fanlararo yondashuvlarni o`zida mujassam etgan holda o`quv dasturlarini yangilash ustida ish olib borilmoqda. Ushbu siljish talabalarni amaliy ko`nikmalar, tanqidiy fikrlash qobiliyatları va global nuqtai nazar bilan jihozlashga qaratilgan.⁴

Tadqiqotlar va innovatsiyalar: Hukumat ilmiy infratuzilmaga sarmoya kiritdi va oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni rag`batlantirdi. Bu akademiya va sanoat o`rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga, innovatsiyalar va bilimlarni tarqatish madaniyatini oshirishga olib keldi.

Xalqarolashuv: O`zbekiston xalqaro hamkorlik va dunyoning mashhur universitetlari bilan hamkorlikka katta e'tibor qaratmoqda. Bu talabalar va professor-o`qituvchilar almashinuvi, qo`shma tadqiqot loyihalari va turli istiqbollar bilan tanishish imkonini berdi.

Sifatni ta'minlash: Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini monitoring qilish va baholash uchun sifatni ta'minlash mexanizmlari joriy etilgan. Bu yuqori ta'lim standartlarini saqlash va umumiy samaradorlikni oshirishga ko`proq e'tibor qaratilishiga olib keldi.⁵

Raqamli transformatsiya: Raqamli asrni qamrab olgan O`zbekiston onlayn ta'lim platformalari, raqamli resurslar va elektron ta'lim tashabbuslari orqali texnologiyani oliy ta'limga integratsiya qilmoqda. Ushbu harakat ta'lim berishda foydalanish imkoniyati va moslashuvchanlikni oshiradi.

³ Qosimova, M. A. "OLIY TALIM MUASSALARI O'QUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH." Экономика и социум 4-1 (107) (2023): 251-254.

⁴ Prezidentining, O.Z.R., 2019. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO`G`RISIDA.

⁵ Akbarova, M., 2023, March. MASOFAVIY TA'LIMNING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 3, pp. 56-62).

Ta'lim tili: O`zbek tili asosiy o`quv tili bo`lib qolsa-da, ingliz va boshqa tillarda o`qitiladigan dasturlarning imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilindi, bu esa xalqaro miqyosda kengayishiga yordam berdi.

Kelajak istiqbollari

O`zbekistonda oliy ta'limning rivojlanayotgan istiqbollari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun istiqbollarni taqdim etadi. Islohotlar jadallik bilan davom etar ekan, O`zbekiston oliy ta'lim kelajagini bir qancha asosiy tendentsiyalar shakllantirishi mumkin:

To`rtinchi sanoat inqilobi uchun ko`nikmalar: Mamlakatning innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni qo`llab-quvvatlashga sodiqligi to`rtinchi sanoat inqilobi uchun zarur bo`lgan ko`nikmalar, jumladan, sun`iy intellekt, ma'lumotlar fani va raqamli savodxonlik integratsiyasiga olib keladi.

Global ishtirok: Xalqaro hamkorlikning kuchayishi talabalar va o`qituvchilarni turli madaniy tajribalar va ilg`or bilimlarga ega bo`lib, global miqyosda raqobatbardosh ishchi kuchini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Akbarova, M., 2023, March. MASOFAVIY TA'LIMNING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 3, pp. 56-62);
2. Prezidentining, O.Z.R., 2019. O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO`G`RISIDA;
3. Qosimova, M. A. "OLIY TA'LIM MUASSALARI O'QUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH." Экономика и социум 4-1 (107) (2023): 251-254;
4. Xudaybergenov, A., 2023, February. O`ZBEKISTONDA TA'LIMGA KIRITILGAN YANGILIKLAR, YUTUQLAR. BUGUNGI KUN O`QITUVCHILARI!. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 2, pp. 15-25);
5. Nurullayevna, N.M. and Muhlisa, T., 2021, December. SOME PROBLEMS AND SHORTCOMINGS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. In Archive of Conferences (pp. 61-62);
6. Lex.uz